

EKOLOGIK VA IJTIMOIIY MAJBURIYATLAR REJASI (EIMR)

O'zbekiston Respublikasi

Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligi

**Isitish va sovutish tizimlarida yuqori energiya
samaradorligiga erishish bo'yicha
O'zbekistonning milliy dasturini tayyorlash uchun
grant (P181922)**

2025-yil 12-iyun

EKOLOGIK VA IJTIMOIIY MAJBURIYATLAR REJASI

1. O'zbekiston Respublikasi (keyingi o'rinlarda "Qabul qiluvchi" deb yuritiladi) O'zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligi ishtirokida taklif etilayotgan Isitish va sovutish tizimlarida yuqori energiya samaradorligiga erishish bo'yicha O'zbekistonning milliy dasturini (keyingi o'rinlarda "Dastur" deb yuritiladi) tayyorlash uchun muayyan tadbirlarni (keyingi o'rinlarda "Tadbirlar" deb yuritiladi) amalga oshirishni rejalashtirmoqda. Buning uchun u Kelishuv xatida (keyingi o'rinlarda "Kelishuv" deb yuritiladi) ko'rsatilganidek, tayyorgarlik granti so'ragan. Xalqaro tiklanish va taraqqiyot banki (keyingi o'rinlarda "Bank" deb yuritiladi) loyihalarni tayyorlash uchun Grant jamg'armasining ishonchli boshqaruvchisi sifatida ishtirok etib, yuqorida ko'rsatilgan Kelishuvda belgilanganidek, Tadbirlarni moliyalashtirish uchun grant ajratishga rozilik berdi.
2. Qabul qiluvchi bu Tadbirlarning Ekologik va ijtimoiy standartlarga (EIS) va mazkur Ekologik va ijtimoiy majburiyatlar rejasiga (EIMR) muvofiq Bank uchun maqbul tarzda amalga oshirilishini kafolatlashi lozim. EIMR Kelishuvning bir qismi hisoblanadi. Agar ushbu EIMRda boshqacha tartib-qoida belgilanmagan bo'lsa, ushbu EIMRda qo'llaniladigan bosh harflar bilan yozilgan atamalar yuqorida ko'zda tutilgan Kelishuvda ularga berilgan ta'riflarga ko'ra qo'llaniladi.
3. Yuqoridagilar bilan cheklanmagan holda, mazkur EIMR Qabul qiluvchi bajarishi yoki bajarilishini ta'minlashi kerak bo'lgan muhim choralar va harakatlarni, shu jumladan, tegishlilikiga ko'ra, ularning muddatlari, institutsional, kadrlar, o'quv, monitoring va hisobot kelishuvlari, hamda shikoyatlarni boshqarish tizimlarini belgilaydi. EIMRda, shuningdek, Bank uchun maqbul bo'lgan shakl va mazmunda, EISga muvofiq Tadbirlar uchun tayyorlanishi yoki yangilanishi, ko'rib chiqilishi, e'lon qilinishi va amalga oshirilishi zarur bo'lgan atrof-muhit va ijtimoiy masalalarga oid hujjatlar ham keltirib o'tiladi. Atrof-muhit va ijtimoiy masalalar bo'yicha ko'rsatilgan bu hujjatlar vaqti-vaqti bilan, Bankning oldindan yozma roziligi asosida qayta ko'rib chiqilishi mumkin. Eslatib o'tilgan Kelishuvda nazarda tutilganidek, Qabul qiluvchi EIMRni amalga oshirish xarajatlarini qoplash uchun yetarli mablag'larni ta'minlashi zarur.
4. Bank va Qabul qiluvchi o'rtasidagi kelishuvga ko'ra, zarurat tug'ilganda, Tadbirlarni amalga oshirish jarayonida bu Tadbirlar bilan bog'liq o'zgarishlar va kutilmagan holatlarni qulay tarzda boshqarishni ko'rsatib berish uchun yoki Tadbirlar samaradorligini baholash maqsadida, ushbu EIMR vaqti-vaqti bilan qayta ko'rib chiqiladi. Bunday holatlarda Bank va Qabul qiluvchi ushbu o'zgarishlarni ko'rsatib berish uchun EIMRni Bank va Kelishuvda ko'rsatilgan Qabul qiluvchining vakili yoki Qurilish, uy-joy qurilishi va kommunal xo'jalik vaziri tomonidan imzolangan xatlar almashinuvi orqali yangilashga rozilik beradi. Qabul qiluvchi yangilangan EIMRni darhol e'lon qilishi lozim.

AMALIY CHORALAR VA HARAKATLAR		MUDDATLAR	MAS'UL TASHKILOT
AMALGA OSHIRISH MEXANIZMLARI			
A	TASHKILIY TUZILMA a. Tadbirlarning ekologik, ijtimoiy, gigiyenik va xavfsizlik bo'yicha xavf-xatarlarini va ta'sirlarini boshqarishni ta'minlash uchun malakali xodimlar, jumladan, atrof-muhit va ijtimoiy masalalar bo'yicha mutaxassis hamda resurslarni o'z ichiga olgan, Dasturni amalga oshirish guruhining (DAOG) faoliyatini ta'minlash. b. Tadbirlarning atrof-muhitga oid va ijtimoiy xavf-xatarlari hamda ta'sirlarini boshqarish uchun, zarurat tug'ilganda, O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi bilan hamkorlik bitimlarini tuzish.	a. Atrof-muhit va ijtimoiy masalalar bo'yicha mutaxassisni Tadbirlarning Kuchga kirish sanasidan boshlab uch oydan kechiktirmay va ular boshlanishidan oldin ishga qabul qilish yoki tayinlash hamda keyinchalik ushbu lavozimlarni Tadbirlarni amalga oshirish davomida saqlab qolish. b. Tegishli Tadbirlar boshlanishidan oldin.	Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligi

MONITORING VA HISOBOT BERISH			
AMALIY CHORALAR VA HARAKATLAR		MUDDATLAR	MAS'UL TASHKILOT
A	MUNTAZAM HISOBOT Tadbirlarning ekologik va ijtimoiy ko'rsatkichlari monitoringi bo'yicha hisobotlar, shu jumladan, lekin bu bilan cheklanmagan holda, EIMRni amalga oshirish, ishlab chiqilayotgan ekologik va ijtimoiy vositalarining holati, manfaatdor tomonlar bilan o'zaro hamkorlik bo'yicha chora-tadbirlar, olingan har qanday shikoyatlar jurnali va holati hujjatini tayyorlash va ularni Bankka taqdim etish.	Tadbirlar Kuchga kirish sanasidan boshlab, ularni amalga oshirish jarayonida yarim yillik hisobotlarni Bankka taqdim etish. Har bir hisobotni Bankka har bir hisobot davri tugaganidan keyin 30 kundan kechiktirmay taqdim etish.	Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligi
B.	AVARIYALAR VA BAXTSIZ HODISALAR Atrof-muhit, tegishli jamoalar, jamoatchilik yoki ishchilarga jiddiy salbiy ta'sir ko'rsatadigan yoki ko'rsatishi mumkin bo'lgan, Tadbirlar bilan bog'liq har qanday avariya yoki baxtsiz hodisalar, jumladan, ishchilar yoki aholining o'limiga yoki jiddiy jarohatlanishiga sabab bo'luvchi hodisalar, zo'ravonlik, kamsitish yoki norozilik harakatlari, madaniy meros yoki biologik xilma-xillik resurslariga kutilmagan ta'sir, atrof-muhitning ifloslanishi, to'g'onning yorilishi, majburiy mehnat yoki bolalar mehnati,	Avariya yoki baxtsiz hodisa haqida ma'lumot olingandan so'ng 48 soatdan kechiktirmay Bankni xabardor qilish. So'rov bo'yicha mavjud tafsilotlarni taqdim etish.	Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligi

	tegishli qonuniy choralarsiz ko'chirish (majburiy ko'chirish), jinsiy ekspluatatsiya yoki zo'ravonlik (JEZ) yoki jinsiy shilqimlikda (JSH) ayblovlar yoki kasalliklarning tarqalishi haqida Bankni xabardor qilish. Bank so'roviga ko'ra avariya yoki baxtsiz hodisaning mavjud tafsilotlarini taqdim etish. Avariya yoki baxtsiz hodisaning bevosita, asosiy va tub sabablarini aniqlash uchun tegishli tahliliy tekshiruvni tashkil qilish. Avariya yoki baxtsiz hodisani bartaraf etish va uning takrorlanishining oldini olish uchun amalga oshirilishi kerak bo'lgan chora-tadbirlar hamda harakatlarni o'z ichiga olgan tuzatish harakatlari rejasini tayyorlash, buni Bank bilan kelishish va amalga oshirish.	Agar boshqa muddatlar Bank tomonidan yozma ravishda kelishilmagan bo'lsa, dastlabki xabarnoma yuborilgandan so'ng 10 kundan kechiktirmay Bankka tekshiruv hisoboti va tuzatish kiritish rejasini taqdim etish.	
--	---	---	--

1-EIS: EKOLOGIK VA IJTIMOY XAVF-XATARLAR HAMDA TA'SIRLARNI BAHOLASH VA BOSHQARISH			
1	TEXNIK KO'MAK Tadbirlar doirasidagi har qanday maslahatlar, tadqiqotlar, salohiyatni oshirish va o'qitish, shu jumladan, xususan, institutsional salohiyatni oshirish, maslahat xizmatlari, o'zaro aloqa materiallarini ishlab chiqish, auditlar, tekshiruvlar, texnik ko'zdan kechirish va keyingi amaliyotlar uchun talab qilinishi mumkin bo'lgan ekologik va ijtimoiy xavflarni boshqarish vositalari, masalan, Atrof-muhit va ijtimoiy xavflarni boshqarish rejasi, Oddiy va xavfli chiqindilar uchun chiqindilarni boshqarish rejasi, shuningdek, mehnatni muhofaza qilish va xavfsizlik bo'yicha soddalashtirilgan ko'rsatmalar, EIS asosida, Bank bilan kelishilgan texnik topshiriqqa muvofiq amalga oshirilishini ta'minlash. Shundan so'ng, bunday tadbirlarning natijalari texnik topshiriqqa mos kelishini ta'minlash.	Tadbirlarni amalga oshirish davomida.	Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligi
2-EIS: MEHNAT QILISH VA MEHNAT SHAROITLARI			
2	MEHNATNI TASHKIL QILISH TARTIB-TAOMILLARI Xodimlar Tadbirlarni amalga oshirishga jalb etilishida 2-EIS va O'zbekistondagi amaldagi mehnat qonunchiligiga muvofiqlikni ta'minlash. Shu maqsadda quyidagi chora-tadbirlar amalga oshirilishi ta'minlash: a) Xodimlarga ularning huquqlari, jumladan, ish vaqti, ish haqi, ortiqcha ish soatlari uchun to'lanadigan haq, kompensatsiyalar va imtiyozlar bilan bog'liq huquqlari, shuningdek, mehnat munosabatlarini tugatish to'g'risidagi yozma xabarnoma va zarurat bo'lgan hollarda, ishdan bo'shatilganda beriladigan kompensatsiya to'lovlari to'g'risidagi ma'lumotlarni o'z ichiga olgan yozma shartnomalar orqali mehnat sharoitlari to'g'risida aniq va tushunarli bo'lgan ma'lumot va hujjatlarni taqdim etish;	Tadbirlarni amalga oshirish davomida.	Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligi

	b) Atrof-muhit, sog'liqni saqlash va xavfsizlik bo'yicha umumiy ko'rsatmalar (ASXUK), boshqa tegishli Ilg'or xalqaro sanoat amaliyotlarini (IXSA) va zarur hollarda sanoatga ixtisoslashgan ASXUK va IXSAni hisobga olgan holda, mehnatni muhofaza qilish va xavfsizlik choralarini (shu jumladan shaxsiy himoya vositalari, favqulodda vaziyatlarga tayyorgarlik ko'rish va ularga javob berish chora-tadbirlarini) joriy etish; c) Vaziyatdan kelib chiqib, quyidagi kabi chora-tadbirlar amalga oshirish: (i) majburiy mehnat va bolalar mehnatining barcha shakllaridan foydalanishning oldini olish; (ii) xodimlarga, xususan, o'ch olishdan qo'rqmasdan shikoyat qilish va zararni qoplash mexanizmlaridan foydalanish imkoniyatini berish; o'z xavotirlarini ifoda etish hamda mehnat qilish va mehnat sharoitlari bilan bog'liq huquqlarini himoya qilish uchun kasaba tashkilotlari yoki shunga muqobil mexanizmlarni yaratish hamda ularga a'zo bo'lishda xodimlarning samarali erkinligini ta'minlash; d) Xodimlar uchun JEZ va JSH holatlarining oldini olish va ularga javob choralarini ko'rish bo'yicha chora-tadbirlarni o'z ichiga olgan axloq kodeksini ishlab chiqish; e) Yuqorida ko'rsatilgan tegishli talablarni va Bank fikricha 2EIS muvofiqligini ta'minlash uchun zarur bo'lgan boshqa har qanday talablarni xarid hujjatlaridagi ekologik va ijtimoiy masalalar bo'yicha ilova hamda Tadbirlarni amalga oshirish uchun xodimlarni jalb qiluvchi, uchinchi tomonlar bilan tuziladigan shartnomalarga kiritish.		
3-EISdan 9-EISgacha:			
3	Ushbu standartlarning tegishli jihatlari, zarurat tug'ilganda, yuqoridagi 1.2-harakatga muvofiq texnik ko'mak tadbirlarida ko'rib chiqilishi lozim.	Muddatlar 1-harakat uchun belgilangan muddatlar bilan bir xil.	Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligi
10-EIS: MANFAATDOR TOMONLAR BILAN HAMKORLIK VA AXBOROTNI OSHKOR ETISH			
10.1	MANFAATDOR TOMONLAR BILAN HAMKORLIK VA AXBOROTNI OSHKOR ETISH	Tadbirlarni amalga oshirishning butun davri mobaynida manfaatdor tomonlar bilan o'zaro hamkorlik qilish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish.	Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligi

	10-EISga muvofiq, Tadbirlarni amalga oshirishda manfaatdor tomonlar bilan hamkorlik qilish va ma'lumotlarni oshkor etish choralari kiritish. Shu maqsadda quyidagi chora-tadbirlar amalga oshirilishi ta'minlash: a) Manfaatdor tomonlarga Tadbirlarning ekologik va ijtimoiy xavf-xatarlari hamda oqibatlarini to'g'risidagi ma'lumotlarni o'z vaqtida, tushunarli, ochiq va tegishli shakl hamda formatda, shu jumladan Tadbirlar doirasida tayyorlangan har qanday ekologik va ijtimoiy vositalar va aloqa materiallarini taqdim etish. Atrof-muhit va ijtimoiy sohaga ta'sirni baholash bo'yicha barcha hujjatlar Qurilish, uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligining yoki DAOGning veb-saytida e'lon qilinishi shart; b) Manfaatdor tomonlar bilan manipulyatsiya, aralashuv, majburlash, kamsitish va qo'rqitishdan xoli bo'lgan, madaniy jihatdan maqbul tarzda, shu jumladan Tadbirlar doirasida tayyorlangan har qanday ekologik va ijtimoiy vositalar bo'yicha maslahatlashuvlar o'tkazish; c) Manfaatdor tomonlar bilan o'zaro hamkorlik bo'yicha tadbirlarni hujjatlashtirish, jumladan: (i) manfaatdor tomonlarni xaritalash; (ii) foydalanilgan maslahatlashuv va ishtirok etish mexanizmlari tavsifi hamda o'tkazilgan uchrashuvlar bayonnomalari; (iii) olingan fikr-mulohazalar va ularga berilgan javoblar; va (iv) o'zlarining alohida vaziyatlari tufayli noqulay ahvolga tushib qolishi yoki o'z holatda bo'lishi mumkin bo'lgan manfaatdor tomonlar bilan o'zaro hamkorlik choralari.		
10.2	SHIKOYATLAR BILAN ISHLASH Tadbirlar bilan bog'liq muammolar va shikoyatlarni tez va samarali, shaffof, madaniy jihatdan maqbul va faoliyatga aloqador barcha tomonlar uchun bepul va oson tarzda, shu jumladan 10-EISga muvofiq anonim tarzda berilgan muammolar va shikoyatlarni qabul qilish hamda hal etishga ko'maklashish.	Tadbirlarni amalga oshirish davomida.	Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligi